

SUG'URTA ZAXIRALARI AUDITINI O'TKAZISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH

**U.A.Shirinov – SamISI dotsent
P.Mamasharifov – SamISI magistr**

Annotatsiya: Maqolada sug'urta tashkilotlarida zaxiralarni auditorlik tekshiruvdan o'tkazishning ketma-ketligi va auditorlik rejasi hamda dasturini tuzish to'g'risida bayon qilingan.

Kalit so'zlar:sug'urta, sug'urta zaxiralari, audit rejasi,audit, auditorlik tekshiruvlari.

Bugungi kunda mamlakatimizda inson manfaatlari, huquq va erkinliklari yuksak qadriyat bo'lib, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Respublikamiz iqtisodiyotining turli soha va tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblikning kuchayishi hamda barqaror o'sish sur'atlarining ta'minlanishi natijasida aholi daromadlari, turmush darajasining sezilarli ravishda oshishi ertangi kunga bo'lgan ishonchimizning tobora mustahkamlanib borishiga zamin yaratmoqda.

Prezidentimiz qator nutqlarida sug'urta faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ta'kidlaydilar: "Sug'urta xizmatlari iqtisodiyotni turli xil moliyaviy xatarlardan himoya qiluvchi vositalardan biridir."¹.

Yurtimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida qo'lga kiritilayotgan yuqori natijalar, eng avvalo, yangidan-yangi zamонавиy tarmoq va ishlab chiqarish quvvatlarining yo'lga qo'yilishi, buning ta'sirida mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatining sezilarli darajada ortib borayotgani, yaratilayotgan mahsulot va ko'rsatilayotgan xizmat turlarining ko'payib, mahsulot sifatini yaxshilash ta'minlanmoqda. Iqtisodiyot rivojlanishini yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan "Taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha vazifalari belgilangan.² Ushbu vazifalarni amalga oshirish xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini sug'urta qilish bilan bevosita bog'liq.

Korxonalar sug'urta zaxiralarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning boshlang'ich bosqichi bo'lib rejalashtirish hisoblanadi. Rejalashtirish jarayoni 3 bosqichda amalga oshiriladi:

- Dastlabki rejalashtirish;
- Auditning umumiy rejasini tayyorlash va tuzish;
- Audit dasturini tayyorlash va tuzish.

Dastlabki rejalashtirish jarayonida auditor korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan tanishishi, audit o'tkazish imkoniyatlarini baho berishi lozim. Aynan bu jarayon dastlabki rejalashtirishning bir qismi bo'lib hisoblanadi. Bundan

¹ <https://www.uzavtoyl.uz/cy/post/sugurta-bozorini-rivojlantirish-masalalari-muhokama-qilindi.html>

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги Фармони, 2022 йил 28 январ, № ПФ-60.

tashqari dastlabki rejalshtirishda auditorlik tashkiloti tomonidan tekshiruvda ishtirok etadigan mutaxassislar tarkibini, ishning muddatlarini, miqdoriy tarkiblarini ishlab chiqadi.

Shundan so'ng auditorlik korxonasi tomonidan mijoz korxonaga auditorlik tekshiruvini o'tkazish bo'yicha rozilik xati yuboradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, moliyaviy faoliyat audit jarayonida quyidagi amallar bajariladi:

Sug'urta zaxiralari bo'yicha auditni rejalshtirishning asosiy amallari

Subyekt to'g'risida umumiy ma'lumotlar yig'ish

Mijozlarning huquqiy majburiyatları haqida
ma'lumotlar yig'ish

Audit muhimliligi va maqbul xatarlik darajasini
baholash

Auditning umumiy rejasi va dasturini ishlab
chiqish

5-rasm. Sug'urta zaxiralari bo'yicha daromadlar auditini rejalshtirishning asosiy amallari.

Auditorlik tekshiruvini o'tkazish bo'yicha rozilik xati – bu dastlabki kuzatishlar tugagach buyurtmachiga taqdim etiladigan hujjat. U o'zida dastlabki kuzatishning natijalari, auditorlik tekshiruvi bo'yicha hisoblangan ish hajmi, auditorlik xatarining darajasi, taklif etilayotgan qiymat, ishni bajarish bo'yicha taklif etilgan muddatlarni, bajaruvchilarni va boshqalarni aks ettiradi.

Shundan so'ng buyurtmachi korxona bilan auditorlik korxonasi o'rtasida shartnomalar tuziladi.

Auditorlik faoliyati to'g'risida shartnomalar – bu auditorlik tashkiloti va xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida auditorlik tekshiruvi yoki boshqa kasbiy xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha o'zaro munosabatlarni belgilab beruvchi yuridik hujjat. Shartnomalar bilan birgalikda "Shartnomaviy bahoni kelishuv bayonnomasi" rasmiylashtiriladi.

Auditorlik tashkiloti bajarayotgan rusum-qoidalarning natijalarini umumiy reja va dasturni tayyorlash paytida batafsil hujjatlashtirish kerak, chunki mazkur natijalar auditni rejalshtirish uchun asos hisoblanadi va butun audit jarayoni

davomida ishlatalishi mumkin. Auditning umumiy rejasini audit dasturini amalga oshirishda qo'llanma bo'lib xizmat qilishi kerak.

Umumiy rejada auditorlik tashkiloti auditni o'tkazish muddatlarini, hisobot (xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyatiga yozma axborot) va auditorlik xulosasini tuzishni nazarda tutishi shart va u auditorlik tekshiruvi jarayonida asosiy qo'llanma hisoblanadi. Auditni rejalashtirish paytida auditor qanday harakatlar va operasiyalar moliyaviy hisobotni jiddiy buzishlarga olib kelishini ko'rib chiqadi.

3-sod AFMSda audit rejasining namunaviy mazmuni keltirilgan bo'lib, bizningcha moliyaviy faoliyat auditining rejasini quyidagicha tuzilishi mumkin:

1-jadval

Sug'urta zaxiralari auditining umumiy rejasini

Tekshirilayotgan tashkilot: "O'zbekinvest" EIMSK

Audit davri: 1.05.2024 dan 25.05.2024

Kishi soatlar soni: 250

Auditorlik guruh rahbari: Aliyev A.

Auditorlik guruh tarkibi: Aliyev A.

Rejalashtirilayotgan auditorlik xatari: 5

Rejalashtirilayotgan jiddiylik darajasi: 5

	Rejalashtirilgan ishlar turi	O'tkzish davri	Ijrochi	Izoh
1.	Korxona faoliyati bilan tanishish	1.05-2.05		
2.	Sug'urta zaxiralari doir hujjatlarni tekshirish	3.05-5.05	Aliyev A.	
3.	Sug'urta zaxiralaring shakllanish manbalarini tekshirish	6.05-23.05	Aliyev A.	
4.	Auditorlik tekshiruvi natijalarini umumlashtirish va korxona sug'urta zaxiralari doir xo'jalik operasiyalarining qonuniyligi buzilishini bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish	24.05-25.05	Aliyev A.	

Auditorlik dasturi tekshiruv umumiy rejasini rivojlantirish orqali tuziladi va u yuqorida aytganimizdek, tekshiruv jarayonidagi asosiy yo'riqnomalar bo'lib xizmat qiladi hamda audit rejasini amalda ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lган auditorlik rusum-qoidalari mazmunining batafsil ro'yxatini o'z ichiga oladi.

2-jadval

Sug'urta zaxiralari auditining umumiy dasturi

	Rejalashtirilgan ishlar turi	O'tk azis	Ijroc hi	Auditoring ishchi hujjatlari	Izoh
1.Korxona faoliyati bilan tanishish					
2.Moliyaviy faoliyat daromadlariga doir hujjatlarni tekshirish					
2.1	Sug'urta zaxiralari doir shartnomalarining mavjudligini, ularning to'g'ri rasmiylashtirilganini tekshirish	1.05-4.05	Aliyev A.		

3.Moliaviy faoliyat daromadlarining shakllanish manbalarini tekshirish						
3.1	Sug'urta zaxiralari to'g'ri tan olinganligini va ular hisobini tegishli schyotlarga to'g'ri olib borilganligini tekshirish	5.05-7.05		Aliyev A.	8500 schyoti bo'yicha o'tkazmalar, ma'lumotlari	hisob-kitob
3.2	Sug'urta zaxiralari bo'yicha yuritiladigan yig'ma hujjatlarning to'g'ri yuritilayotganini hamda hisobot shakllaridagi ma'lumotlar bilan dastlabki hujjatlarda bir xil ma'lumotlar ekanligini tekshirish	8.05-10.05		Aliyev A.	8500 schyoti bo'yicha jurnal-oderlar, hisobot ma'lumotlari	
4. Auditorlik tekshiruvi natijalarini umumlashtirish						
4.1	Tekshiruv natijalari bo'yicha yaxlid fikrlarni hosil qilish	24.05		Aliyev A.		
4.2	Sug'urta zaxiralariga doir xo'jalik operasiyalarining qonuniyligi buzilganligi aniqlansa bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish	25.05		Aliyev A.		

Auditning umumiyligi rejasi va auditning dasturi audit o'tkazish vaqtida lozim bo'lishiga qarab qaytadan ko'rib chiqilishi lozim. Vaziyatlardagi o'zgarishlar yoki auditorlik muolajalarni bajarish paytida olingan ko'zda tutilmagan natijalarni hisobga olish uchun xizmat ko'rsatishning butun muddatida rejalashtirish uzlusiz amalga oshirib boriladi. Ahamiyatli o'zgartirishlarning natijalari hujjatlari rasmiylashtirilib boriladi.

Xulosa qilib aytganda sug'urta zaxiralari auditini to'g'ri tashkil etish uni rejalashtirishga juda ham bog'likligini ko'rishimiz mumkin. Shu boisdan sug'urta zaxiralari auditini rejalashtirish va shunga asosan dasturini tuzish o'ta muhum masalallardan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- Абдураимова, Мафтунахон. "Суғурта ташкилотларини аудиторлик текширувидан ўтказиш методологияси." *Iqtisodiyot va ta'lim* 24.1 (2023): 238-244.
- Абдураимова М. "Суғурта ташкилотларида молиявий ҳисоботини тузиш ва аудиторлик текширувидан ўтказиш тартибини такомиллаштириш" мавзусидаги докторлик диссертацияси. 2020 йил.
- Уразов К.Б. Молиявий ҳисоб ва ҳисбот. Замонавий педагогик технологияларга асосланган кўргазмали маъruzalар курси. 2-қисм. - СамИСИ, 2019. - 155 бет.
- Ширинов, У. А., & Абдусаидов, С. Ж. (2022). Суғурта корхоналарида аудитнинг хусусиятлари. *экономика и социум*, (10-1 (101)), 745-749.